

1.4-modul. Inklyuziv ta'lim asoslari

Mavzu: Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega o'quvchilarga talim-tarbiya berish va talim jarayoniga jalb qilish

(muammoli ta'lim texnologiyasi asosida)

Kerakli jihozlar: Interfaol doska, taqdimot, videomaterial, tarqatmalar.	O'quv maqsadi: inklyuziv sinflarda alohida ta'limga ehtiyoji bor o'quvchilar bilan ishlash hamda ularni ta'limga jalb qilishning mazmun va mohiyati, jarayonning pedagogik-psixologik jihatlariga e'tibor qaratish	
Dars bosqichlari	Reja va amalga oshiriladigan ishlar	Izoh
1-qadam	<ul style="list-style-type: none">- Kirish (5 daqiqa).- Dars algoritmi (5 daqiqa).- BBB usulida muammoli savol (10 daqiqa).- Muammoli topshiriq: guruhlarda ishlash va taqdimot (25 daqiqa).- Muammoli keys (videomaterial): guruhlarda ishlash va taqdimot (25 daqiqa).- BBB usulida darsni yakunlash va xulosalash (10 daqiqa).	
2-qadam	Amalga oshirish jarayoni	
Bosqichlar	<ol style="list-style-type: none">1. Kirish. Tinglovchilar bilan tanishuv. Modul va o'tiladigan dars bo'yicha ma'lumot.2. Dars algoritmi. Mavzuning qaysi texnologiyada tashkil etilishi va amalga oshiriladigan ishlar ketma-ketligi haqida ma'lumot berish.3. BBB usulida muammoli savol. Mavzu yuzasidan tuzilgan muammoli savolni BBB usulida bajartirish. Bunda metod bo'yicha keltirilgan jadvalning dastlabki ikki ustuni bajartiladi.4. Muammoli topshiriq: guruhlarda ishlash. Guruh 4 ta kichik guruhlariga bo'linadi va 4 ta muammoli topshiriqni bajaradi. Bunda vazifani bajarish uchun 10 daqiqa, guruh taqdimotlari uchun 15 daqiqa ajratiladi.5. Muammoli keys: guruhlarda ishlash. Guruh 4 ta kichik guruhlarda ishlashda davom etadi va 2 ta videomaterial bo'yicha topshiriqni bajarishadi. Bunda vazifani bajarish uchun jami 9 daqiqa, guruh taqdimotlari uchun 16 daqiqa ajratiladi.	

3-qadam	- BBB usulida darsni yakunlash va xulosalash: bunda tinglovchilardan BBB ustunining oxirgi qismini to'ldirish so'raladi hamda dars davomida olib borilgan ishlarga munosabati o'rganiladi, qayta aloqa (feedback olinadi) tashkil qilinadi. Texnologiyaning ahamiyatlilik darajasi bilan xulosalanadi.	
----------------	--	--

Tuzuvchi :

G.Fayzullayeva